



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA BAJARILGAN QURILISH ISHLARI ASOSIY KO‘RSATKICHLARI



2023- YIL YANVAR


O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAOLIYAT KORSATAYOTGAN QURILISH KORXONALARI

2023- yilning 1- fevral holatiga O‘zbekiston Respublikasida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni 45 591 tani tashkil etdi.

Shuningdek, 2023- yilning yanvar oyida jami 426 ta yangi qurilish korxonasi tashkil etilib, ularning faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalariga nisbati 0,9 % ni tashkil etdi.

Qurilish korxonalarining katta qismi, ya‘ni 9 166 tasi yoki respublikadagi jami korxonalarining 20,1 % i Toshkent shahrida joylashgan.

2023- yil 1- fevral holatiga qurilish korxonalarini soni, birlikda




Shuningdek Toshkent viloyatida 3 999 ta (respublika bo‘yicha jami qurilish korxonalarining 8,8 % i) va Farg‘ona viloyatida 3 788 ta (8,3 %) qurilish korxonalarini mavjud bo‘lib, qolgan hududlarga nisbatan kattaroq ko‘rsatkichga ega.

Hududlar kesimida

Toshkent sh.	9 166
Toshkent	3 999
Farg‘ona	3 788
Qashqadaryo	3 444
Samarqand	3 435
Andijon	3 318
Buxoro	2 999
Surxondaryo	2 932
Qoraqalpog‘iston R.	2 455
Namangan	2 378
Jizzax	2 155
Xorazm	2 121
Navoiy	1 748
Sirdaryo	1 603


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha



Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi

2023- yilning yanvar oyida, O'zbekiston Respublikasida jami 5 011,9 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 65,7 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'mda



2019

2020

2021

2022

2023


Yillar kesimida oldingi yilning mos davriga nisbati




Ma'lumot uchun: qurilish faoliyati bu – o'z kuchi bilan amalga oshirilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hajmlari va boshqalar natijasidir.

2023- yil yanvar oyida O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda



Toshkent shahri
1 721,7 mlrd. so‘m



Toshkent viloyati
480,0 mlrd. so‘m



Farg‘ona viloyati
344,5 mlrd. so‘m

2022- yilning yanvar oyida hududlar kesimida xususan, Toshkent shahri (1721,7 mlrd. so‘m), Toshkent viloyati (480,0 mlrd. so‘m) va Farg‘ona viloyatida (344,5 mlrd. so‘m) qurilish ishlarining yuqori hajmi qayd etildi.

2023- yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

2023- yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:


- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 67,1 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 66,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 19,9 % ulushni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 70,9 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 13,0 % ulushni va 2022- yilning mos davriga nisbatan 56,1 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, jamiga nisbatan % da



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm


3 363,5



997,9



650,5



Bino va inshootlar qurish



Fuqarolik obyektlarini qurish



Ixtisoslashtirilgan qilish ishlari

Qurilish ishlari hajmiga yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qurilish pudrat shartnomalari asosida va xo'jalik usulida bajarilgan ishlar, shuningdek, sotish uchun mo'ljallangan obyektlar kiritiladi.

2023- yil yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 65,8 % i yoki 3 296,7 mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa jtmoyiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.



302,7
mlrd. soʻm
9,2 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 302,7 mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 9,2 % ni tashkil etdi.





1 988,6
mlrd. soʻm
60,3 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1 988,6 mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 60,3 % ni tashkil etdi.

1 005,4
mlrd. soʻm
30,5 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 1 005,4 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 30,5 % ni tashkil etdi.

Yangi qurilishning ulushi




Yillar kesimida hajmi, mlrd. soʻmda

2 639,9




3 542,4




3 979,3



4 567,5



3 296,7



2019



2020



2021



2022



2023

2023- yil yanvar oyida umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi

	Yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish	Ulushi jamiga nisbatan % da
O'zbekiston Respublikasi*	3 296,7	100,0
Qoraqalpog'iston Respublikasi	144,7	4,4
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	174,5	5,3
Buxoro	119,1	3,6
Jizzax	113,2	3,4
Qashqadaryo	207,3	6,3
Navoiy	147,2	4,5
Namangan	195,2	5,9
Samarqand	202,7	6,1
Surxondaryo	180,6	5,5
Sirdaryo	91,0	2,8
Toshkent	357,1	10,8
Farg'ona	250,3	7,6
Xorazm	125,0	3,8
Toshkent sh.	988,9	21,1

*hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmni qo'shgan holda



Toshkent sh.
988,9 mlrd. so'm



Toshkent viloyati
357,1 mlrd. so'm




Farg'ona viloyati
250,3 mlrd. so'm

2023- yil yanvar oyida hududlar kesimida yangi qurilish ishlari bo'yicha yuqori hajm, Toshkent shahri (988,9 mlrd. so'm), Toshkent viloyati (357,1 mlrd. so'm), Farg'ona viloyati (250,3 mlrd. so'm) va Qashqadaryo viloyatida (207,3 mlrd. so'm) qayd etildi.

2023- yil yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Jami bino va inshootlarni qurish – 3363,5 mlrd. so'm



Amaldagi statistik kuzatuv shakllarida 2015- yilning 1- yanvaridan boshlab, "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (mahsulot, ish, xizmat) statistik tasniflagichi (MST)"ga muvofiq "Qurilish" faoliyati bo'yicha "faoliyat turi bo'yicha o'z kuchi bilan amalga oshirilgan ishlar hajmi" ko'rsatkichi qo'llaniladi.

Bino va inshootlarni qurish ishlarining 2022-yilning mos davriga nisbati

67,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari

59,1 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

85,4 %

Norasmiy sektor




Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,2 % ni tashkil etib, 2022- yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yilning mos davriga nisbatan 8,0 % punktga kamayib, 59,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,9 % punktga ko'payib, 33,8 % ni tashkil etdi.

2023- yil yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi

Hududlarning hajmi va ulushi, mlrd. so‘m va foizda



Jizzax viloyati **84,3 %**



Andijon viloyati **78,8 %**



Farg‘ona viloyati **78,0 %**

Ma‘lumot uchun: Bino va inshootlarni qurish faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 84,3 % i), Andijon viloyati (78,8 %) va Farg‘ona viloyati (78,0 %)da kuzatildi.

2023- yil yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha


Fuqarolik obyektlarini qurish, *mlrd. so'm*

829,1

167,7



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

1,1



Norasmiy sektor

Fuqarolik obyektlari qurilishiga avtomobil yo'llari, ko'chalar, ko'priklar va tunnellar, temir yo'llar, aerodromlar, gavanlar va boshqa suv loyihalari, sug'orish tizimlari, sanoat inshootlari, truboprovodlar va elektr uzatish liniyalari, ochiq sport komplekslari kabi og'ir konstruksiyalarni qurish kiradi.

Jami hajmdagi ulushi



16,8 %

Yirik qurilish tashkilotlari

Hajm – **167,7** mlrd. so'm
2022-yilning mos davriga nisbatan – **111,9** %



83,1 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Hajm – **829,1** mlrd. so'm
2022-yilning mos davriga nisbatan – **66,2** %



0,1 %


Norasmiy sektor

Hajm – **1,1** mlrd. so'm
2022-yilning mos davriga nisbatan – **19,3** %

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 16,8 % ni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,2 % punktga ko'paydi. Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 83,1 % (5,9 % punktga kamayish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi (0,3 % punktga kamayish).

2023- yil yanvar oyida fuqarolik obyektlarini qurish

Hududlarning hajmi va ulushi, *mlrd. so'm va foizda*



57,9 %
Samarqand viloyati



29,0 %
Surxondaryo viloyati



25,3 %
Xorazm viloyati

Ma'lumot uchun: Fuqarolik obyektlarini qurish faoliyat turi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Samarqand viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 57,9 % i), Surxondaryo viloyati (29,0 %) va Xorazm viloyati (25,3 %)da kuzatildi.

2023- yil yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari asosiy ko'rsatkichlari

Korxonalar turlari bo'yicha

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, *mlrd. so'm*

104,8

545,7



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari sayqallash, suvoqchilik, bo'yoqchilik ishlari, pollar va devorlarni plitka bilan qoplash yoki parket, kovrolan, gulqog'ozlar bilan qoplash, shuningdek, pollarni siklyovkalash, duradgorlik ishlari, ovoz izolyatsiyalash ishlari, tashqi hududlarni tozalash kabi bezatishga aloqador ishlarni o'z ichiga oladi.

Jami hajmdagi ulushi



16,1 %



83,9 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari, 2022- yilning mos davriga nisbatan

91,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari

52,2 %


Kichik korxonalar va mikrofirmalar

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan 6,3 % punktga ko'paydi va 16,1 % ni tashkil etdi.

Qolgan 83,9 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 6,3 % punktga kamaydi.

2023- yil yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va ulushi, *mlrd. so‘m va foizda*



19,4 %
Namangan viloyati



17,4 %
Toshkent viloyati



17,3 %
Toshkent shahri

Ma‘lumot uchun: Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari faoliyat turi bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Namangan viloyati (hududda bajarilgan qurilish ishlarining 19,4 % i), Toshkent viloyati (17,4 %) va Toshkent shahrida (17,3 %) kuzatildi.

2023- yil yanvar oyi uchun korxonalar turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, *mlrd. so'mda*

513,4

3359,4

1139,1



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Jami hajmga nisbatan ulushi

10,3 %

67,0 %

22,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari

2022-yilning mos davriga nisbatan –
82,9 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar

2022-yilning mos davriga nisbatan –
59,4 %

Norasmiy sektor

2022-yilning mos davriga nisbatan –
85,1 %

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yil yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yilning yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 513,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2022- yilning mos davriga nisbatan 82,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 2,1 % ga oshib, 10,3 % ni tashkil etdi.

Xo'jalik usulida bajarilgan ishlar hajmi qurilish egasi tomonidan hisobot davrida qurilish ishlariga sarflangan xarajatlaridan kelib chiqib aniqlanadi.

Yirik qurilish tashkilotlari, ulushi

8,2 %

10,3 %

2022- yil

2023- yil

Hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati, yillar bo'yicha

398,5
mlrd. so'm

543,1
mlrd. so'm

495,8
mlrd. so'm

567,5
mlrd. so'm

513,4
mlrd. so'm

112,3 %

118,6 %


81,7 %

96,3 %

82,9 %



2019




2020



2021




2022



2023

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2023- yil yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlari

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda



Jami hajmga nisbatan ulushi



Ma‘lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 16,7 % i), Surxondaryo viloyati (14,9 %) va Toshkent viloyatida (13,3 %) qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan 2023- yil yanvar oyida bajarilgan qurilish ishlarining asosiy ko'rsatkichlari

2023- yilning yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 67,0 % i to'g'ri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 7,6 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan 59,4 % ni tashkil etgan holda 3 359,4 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi

74,1 %



2019

72,6 %



2020

74,0 %



2021

74,6 %



2022

67,0 %



2023

Yillar bo'yicha hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati

3 301,7

mlrd. so'm

2,8 m

2019

3 893,2

mlrd. so'm

102,6 %

2020

4 339,5

mlrd. so'm

99,7 %

2021

5 190,9

mlrd. so'm

100,7 %

2022

3 359,4


mlrd. so'm

59,4 %

2023

2023- yil yanvar oyida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan ishlar

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. soʻm va foizda



1 275,5 mlrd. soʻm
Toshkent shahar



272,4 mlrd. soʻm
Toshkent viloyati



200,8 mlrd. soʻm
Fargʻona viloyati

Maʼlumot uchun: koʻrib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (1 275,5 mlrd. soʻm), Toshkent viloyatida (272,4 mlrd. soʻm) va Fargʻona viloyatida (200,8 mlrd. soʻm) qayd etildi.

2023- yil yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor



Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 22,7 % ni yoki 1139,1 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 85,1 % ni tashkil etdi. Shundan 841,1 mlrd. soʻmi yakka tartibdagi uy-joy qurilishiga toʻgʻri kelib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 87,2 % ni, jismoniy shaxslar tomonidan noturar-joylar qurilishi 164,3 mlrd. soʻmni va 78,9 % ni, yakka tartibdagi turar-joylarni taʼmirlash ishlari 133,7 mlrd. soʻmni va 80,6 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor, ulushi foizda

17,2 %

2022- yil

22,7 %

2023- yil

Yillar boʻyicha hajmi va oldingi yilning mos davriga nisbati

753,6
mlrd. soʻm

927,4
mlrd. soʻm

1 025,5
mlrd. soʻm

1 197,4
mlrd. soʻm

1 139,1
mlrd. soʻm


90,8 %

108,3 %

95,4 %

104,6 %


85,1 %



2019



2020



2021




2022



2023

2023- yil yanvar oyida qurilish ishlarining umumiy hajmidagi norasmiy sektor

Hududlarning hajmi va 2022-yilning mos davriga nisbati, mlrd. so‘m va foizda



248,6 mlrd. so‘m
Toshkent shahri



143,7 mlrd. so‘m
Toshkent viloyati



114,6 mlrd. so‘m
Qashqadaryo viloyati


Ma‘lumot uchun: ko‘rib chiqilayotgan davrda norasmiy sektor tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng katta hajmi Toshkent shahrida (248,6 mlrd. so‘m), Toshkent viloyatida (143,7 mlrd. so‘m yoki 90,0 %) va Qashqadaryo viloyatida (114,6 mlrd. so‘m) qayd etildi.

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 186,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 825,8 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 3,7 % va 96,3 % ni tashkil etdi.




yanvar oyidagi hajm, mlrd. so'mda



 Davlat mulki

 Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: nodavlat mulk obyektlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori ulush Jizzax viloyatida (ushbu viloyatdagi qurilish ishlari umumiy hajmining 99,2 % i), Toshkent shahrida (qurilish ishlari umumiy hajmining 98,9 % i) va Namangan viloyatida (ushbu viloyatdagi umumiy qurilish ishlarining 97,7 % i) qayd etildi.



Qurilish ishlari

USLUBIY TUSHUNTIRISHLAR

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari maydoni rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Kapital qurilishga pudrat shartnomasi – bunda pudratchi shartnomada belgilangan ishlarni amalga oshirishi yoki havf-xatarni o'ziga olgan holda obyektни qurish va shartnomada belgilangan muddatda topshirish majburiyatini oladi, buyurtmachi esa, pudratchiga qurilish maydonini ko'rsatadi yoki ish jabhasini ta'minlaydi, ularni qabul qiladi va to'lovlarni amalga oshiradi.

Qurilish tashkilotlariga – barcha umumiy qurilish va ixtisoslashtirilgan tashkilotlar, mexanizatsiya boshqarmalari, ishga tushirish va sozlash tashkilotlari, neft va gaz uchun qidiruv quduqlari qurilishi bilan bog'liq chuqur qidiruv burg'ulash ishlari va boshqa ishlarni amalga oshiruvchi, shuningdek, kapital qo'yilmalar hisobiga qurilayotgan neft va gaz uchun ekspluatatsiya quduqlari qurilishi bilan shug'ullanuvchi burg'ulash tashkilotlari kiritiladi.